

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH.

Dadabyeva Hayotxon

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti

4-bosqich talbasi

E-mail: dadabyevahayotxon@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xorijiy tillarni o'qitishda multimedia vositalaridan foydalanishning ahamiyati va samaradorligi tahlil qilinadi. Interaktiv darslar, o'yinlar va audiovizual materiallar yordamida til o'rganish jarayoni qanday boyitilishi ko'rsatiladi. Shuningdek, multimedia vositalarining afzalliklari va cheklovlari ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, xorijiy tillarni o'qitish, multimedia vositalari, interaktiv darslar, audiovizual materiallar, AKT.

Аннотация: В данной статье анализируется значение и эффективность использования мультимедийных средств в обучении иностранным языкам в дошкольных образовательных учреждениях, рассматриваются способы обогащения процесса изучения языков с помощью интерактивных уроков, игр и аудиовизуальных материалов. Также обсуждаются преимущества и ограничения мультимедийных средств.

Ключевые слова: Дошкольное образование, обучение иностранным языкам, мультимедийные средства, интерактивные уроки, аудиовизуальные материалы, ИКТ.

Abstract: This article analyzes the importance and effectiveness of using multimedia tools in teaching foreign languages in preschool institutions. It explores how interactive lessons, games, and audiovisual materials enhance the language learning process. This article also discusses the advantages and limitations of multimedia tools.

Key words: Preschool education, foreign language teaching, multimedia tools, interactive lessons, audiovisual materials, ICT.

Kirish. Maktabgacha ta'lim bosqichida bolalarga xorijiy tillarni o'rgatish bolalarning muloqot qilish qobiliyatini va xalqaro madaniyatlar bilan tanishishini osonlashtiradi. Bu jarayonning samaradorligini oshirishda multimedia vositalarining roli katta. Multimedia vositalari yordamida bolalar o'qish, eshitish, ko'rish va amaliy mashqlar orqali til o'rganishning qiziqarli va samarali o'tkazishlari mumkin. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim muassasalarida xorijiy tillarni o'qitishda multimedia texnologiyalarining ahamiyati va ulardan foydalanish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Asosiy qism**1. Xorijiy tillarni o'qitishda multimedia vositalarining ahamiyati.**

Maktabgacha yoshda xorijiy til o'rganish bolaning umumiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu davrda bolalar til qobiliyatlarini tez rivojlantiradilar, shuningdek, yangi tilni qabul qilish jarayoni tabiiy ravishda o'tadi. Bu yoshda o'rgatiladigan xorijiy til keyinchalik bolalarning til o'zlashtirish ko'nikmalarini yanada rivojlantiradi. Til o'rganishni multimedia vositalari bilan integratsiya qilish o'quv jarayonini jonlantiradi va samaradorlikni oshiradi. Multimedia vositalari bolalarga xorijiy tillarni o'rganishda qulay imkoniyatlar yaratadi. Ular orqali tilni eshitish, talaffuz qilish, yozish va hatto gapirish ko'nikmalari shakllanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar odatda yangi bilimlarni ko'rish va eshitish orqali osonroq qabul qiladilar. Shu sababli multimedia vositalari orqali o'rganish jarayonini yanada qiziqarli va jonli qilish mumkin.

- **Interaktiv darslar va o'yinlar:** bolalarning diqqatini jalb qilishda multimedia o'yinlari va interaktiv mashg'ulotlar katta ahamiyatga ega. Bu o'yinlar orqali bolalar so'z boyligini oshiradi, jummalarni tuzishni o'rganadi va chet tilida muloqot qilishga kirishadi.
- **Audiovizual materiallar:** xorijiy tillarni o'rganishda videofilmlar, multafilmlar, qo'shiqlar va boshqa audiovizual materiallar tilni tabiiy muhitda o'rganishga yordam beradi. Bunday materiallar bolalarni talaffuz qilish qobiliyatini yaxshilaydi va ularni jonli muloqotga tayyorlaydi.

2. Multimedia vositalarining turlari: Xorijiy tillarni o'qitishda quyidagi multimedia vositalaridan keng foydalanish mumkin:

- **Interaktiv doskalar:** Ushbu texnologiya dars jarayonini ko'rgazmali, qiziqarli va interaktiv qiladi. Interaktiv doska yordamida o'qituvchi va o'quvchilar o'zaro faoliyat olib borishadi, so'zlar va iboralarni tasvirlar bilan bog'lab o'rganadilar.
- **O'quv dasturlari va ilovalar:** Bolalar uchun maxsus ishlab chiqilgan til o'rganish dasturlari va mobil ilovalar ularning darsdan keying vaqtini ham til o'rganishga bag'ishlash imkonini beradi. Masalan, "Duolingo" kabi platformalar orqali bolalar o'z bilimlarini mustahkamlay oladilar.
- **Audiokitoblar va multimedia ensiklopediyalari:** Audio darslar va multimedia ensiklopediyalar yordamida bolalar eshitib o'rganish ko'nikmalarini rivojlantiradi, bu esa talaffuz va muloqot ko'nikmalarini shakllantirishda foydali hisoblanadi.

3. Multimedia vositalarini afzalliklari va cheklovlari: multimedia vositalari o'qitishda samaradorlikni oshiradi, ammo ularning to'g'ri va me'yorida qo'llanishi muhim ahamiyatga ega:

- **Afzalliklari:** ko'rgazmali materiallar orqali o'rganish bolalarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularni faol ishtrok etishga undaydi. Qisqa vaqt ichida ko'proq bilim o'zlashtirishga yordam beradi.
 - **Ko'rgazmalilik va qiziqarli ta'lim:** Tasvirlar animatsiyalar va videolar orqali bolalarning visual va eshitish hissiyotlari bir vaqtda ishlatiladi. Bu ularning ta'lim jarayoniga ko'proq qiziqishini oshiradi.
 - **Faol ishtrok va muloqot:** multimedia o'yinlari bolalarni xorijiy tilni interaktiv tarzda o'rganishga undaydi, bu esa o'z navbatida ularni faol muloqot qilishga rag'batlantiradi. Bolalar dars jarayonida nafaqt passiv ravishda ma'lumot olishadi, balki o'zlari ham faol qatnashadilar.
 - **So'z boyligini oshirish:** boshqa bolalar bilan til o'rganishda o'zaro muloqot qilish imkoniyati yaratadi. Shuningdek, multimedia vositalaridagi ovozli materiallar (qo'shiqlar, hikoyalar, dialoglar) yordamida bolalar so'z boyligini oshiradilar.
 - **Cheklovlari:** texnologiyaga haddan tashqari ishonish bolalarda an'anaviy o'qitish usullaridan uzoqlashishga olib kelishi mumkin. Shuningdek, texnik muammolar yoki resurslar yetishmovchiligi o'qitish jarayonini sekinlashtirilishi mumkin.
- 4. Pedagoglar uchun tavsiyalar:** Multimedia vositalaridan to'g'ri foydalanish uchun pedagoglar ulardan samarali foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishlari lozim. Darslar multimedia yordamida an'anaviy usullar bilan uyg'unlashtirilganda eng yaxshi natijaga erishiladi. Shuning uchun pedagoglar multimedia dasturlarini darsning maqsadi va mazmuniga mos ravishda qo'llashlari kerak. Shuningdek, o'qituvchilar bolalar uchun multimedia texnologiyalari yordamida ijodkorlik va mustaqillikni rivojlantiradigan mashg'ulotlar tashkil qilishlari muhimdir.
- **Moslashtirilgan ta'lim dasturlari:** har bir bola uchun mos multimedia dasturlarini tanlash muhimdir. Bolalarning yoshiga, qobiliyatlariga va individual ehtiyojlariga mos ravishda darslarni tashkil qilish pedagogic jarayonning samaradorligini oshiradi.
 - **Multimedia vositalarini integratsiyalash:** o'quv jarayonida multimedia vositalarini an'anaviy usullar bilan uyg'unlashtirish kerak. Bu orqali bolalar ko'proq bilim olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Xulosa. Xorijiy tillarni maktabgacha ta'limda multimedia vositalari yordamida o'rgatish bolalarning til o'rganish jarayonini qiziqarli va samarali qiladi. Multimedia vositalari bolalarning visual, eshitish, va amlaiy qobiliyatlarini rivojlantirishda yordam beradi. Shuningdek, o'quv jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni integratsiyalash orqali pedagoglar ta'lim sifatini oshiradilar. Biroq, multimedia vositalaridan

foydalanganda me'yor va balansni saqlash, texnologiyalarni an'anaviy o'qitish metodlari bilan uyg'unlashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aripov M., Fayziyeva M., Dottoyev S., "Web-texnologiyalar". O'quv qo'llanma.- T.: "Faylasuflar jamiyati".
2. Bent B. Andresen and Katja van den Brink. Multimedia in Education. UNESCO institute for Information Technologies in Education. 2013.
3. Begimqulov U. SH. "Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari". Monografiya.-T.:Fan.
4. D> Sayfurov, Fayziyeva M. "Ta'limda ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi. 2017.
5. Fozilov Sh. X., Jumanazarov S.S. "Axborotli olam". Ilmiy-ommabop risola. "Fan va texnologiya" nashriyoti. 2007.